

**Ikkilamchi xom ashyodan oziqaviy kukun olish texnologiyasining
tizimli tahlili.**

Norinbayev Bahromojon. Jamoldinova Nazokatxon.

Namangan muxandislik–texnologiya instituti

Anotatsiya: Tizimli taxlil natijasida ikkilamchi xom ashyodan ozuqaviy kukun olish texnologiyasini murakkab jarayonni qismlarga bo`lib tadqiq qilish yanada yuqori darajadagi modellarga o`tish imkonini beradi.

Tayanch iboralar: Bunker, preslash, transportyor.

Аннотация: В результате систематического даёт возможность привести к моделям более высокого уровня технологии и получения пишавое порошка из вторичного сырья в сложном процессе по частям.

Ключевые слова: Бункер, пресс, транспортёр.

Annotation. As a result, the systematic gives the opportunity to bring to models of a higher level of technology and the production of feed powder from secondary raw materials in a complex process in parts.


Key words: Bunker, pressing, conveyor.

Kirish. Tizimli tahlil har qanday ob`ektni tadqiq qilish uslubiyati bo`lib, uni tizim tarzida tasavvur qilish, bu tizimni tahlil qilishga asoslangan. Tizim o`zaro bog`liqlikdagi, qo`yilgan maqsadni amalga oshirish uchun birlashtirilgan elementlar yig`indisidir. Bularni aniqlash uchun tizimni tarkibiy qismlarga ajratiladi. Texnologik tizim-texnologik jarayonlar va ularni amalga oshirish vositalarini yig`indisidir.

Echiladigan muammo va masalalarning qo`yilishi. Ko`rib chiqilayotgan sharbatlar ishlab chiqarish ikkilamchi xom ashyolaridan oziqaviy kukun olish texnologik tizimi murakkab ob`ekt bo`lib, ko`p pog`onali tuzilishga ega bo`lib, ularning matematik modeli uzviy holda, olishdan ularning tarkibiy qismlari modellari tuzilib, bir darajadan boshqasiga o`tish munosabatlarini o`z ichiga oladi.

Murakkab jarayonni qismlarga bo`lib tadqiq qilish yanada yuqori darajadagi modellarga o`tish imkonini beradi.

Ikkilamchi xom ashyoni qayta ishslash texnologik tizimini katta tizim tarzida tasavvur qilish mumkin. Bunda texnologik jarayonlarni ikkilamchi xom ashyodan quritilgan mahsulot olish tizimi deb qaraladi. Mazkur tizim tahlilning ikkinchi bosqichida tashkil etuvchilarga ajratilganda quyidagi texnologik jarayon ketma-ketligidan iborat bir qator tizimlardan tuzilgan.



1.1- rasm. Oziqaviy kukun olish texnologik tizimining ierarxik tuzilishi

Ikkilamchi xom ashyoni to`plash uchun bunker 1.1-tizimi. Ikkilamchi xom ashyodagi yot aralashmalarni qo`l mehnati yordamida tozalash jarayonini amalga oshirish uchun transportyor 1.2-tizimi. Meva-sabzavot sharbatlar ishlab chiqarilgandan keyin qolgan ikkilamchi xom ashyoni quritish oldidan gipotonik eritmada blanshirlash uchun qozon 1.3-tizimi. Ikkilamchi xom ashyoni presslash 1.4-tizimi. Pressdan chiqgan xom ashyoni to`plash bunker 1.5-tizimi. Xom ashyodagi namlikni chiqarish uchun, quritish jarayoni 1.6-tizimi. Quritilgan xom ashyoni maydalash 1.7-tizimi. Maydalangan xom ashyoni elash 1.8-tizimi. Tayyorlangan kukun - yarimtayyor mahsulotni qoplash uchun to`ldirish 1.9-

tizimlaridan iborat. Bu texnologik tizimda boradigan jarayonlar meva va sabzavotlarni ikkilamchi xom ashysidan kukun olish uchun moslashgan.

Ikkilamchi xom ashylardan kukun olish uchun texnologik tizimni quritish va maydalash jarayonlarini optimallashtirish uchun kinetik qonuniyatlarni tekshirish natijalari vaqt birligi ichida mahsulotning namligini o'lchash natijalari zarur bo'ladi.

Sharbatlar ishlab chiqarishdan qolgan ikkilamchi xom ashyni tarkibidagi vitaminlarni saqlab qolish muxim masala hisoblanib, buning uchun sanoat qayta ishlash bosqichidagi quritish jarayonida haroratni otimal ko'rsatkichini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Ikkilamchi xom ashylarni qayta ishlab oziqaviy kukun olishga mos keluvchi jihozlar tanlangandan so'ng umumiylar texnologik tizimni shakllantirish uchun ko'pgina uslublar ishlatildi.

Mavjud texnologik jarayonni rivojlantirish vazifalaridan biri qurilma turini tanlash va jihozni hisoblash har qanday texnologik namuna uchun bir qator turli qurilma va jihozlarni birlashtirishdan iborat. Ma'lumki, sanoatda (issiqlik almashinish, massa almashinish va hokazo) zamonaviy texnologik jihozlarni o'rGANISH, tadqiq qilish va takomillashtirishda matematik modellashtirish uslubidan foydalanildi.

Matematik model qurilma yoki jihozda yuz beradigan jarayonlarning soddalashtirilgan tasvirini aniq ob'ektning muhim xususiyatlarini saqlagan holdagi matematik shaklini beradi. Modellarni ishlab chiqish, xususan texnologik tizimlar va ulardagi jarayonlarni modellashtirish oson kechmasdan, matematik modelga bo'lgan talab ko'pincha ziddiyatli bo'ladi.

Birinchidan, model aniq ob'ektning soddalashtirilgan varianti bo'lishi, jarayonlarning barcha sifatlarini aniq va ravshan ifodalashi lozim. Faqat shu holdagina aniq ob'ektning mohiyati va modeldan ustunligi saqlanadi. Agar, model ob'ektdan murakkab bo'lsa, u holda jarayonni o'rGANISH uchun modeldan emas, ob'ektning o'zidan foydalanish afzal bo'lar edi.

Ikkinchidan, model ob'ekt xaqida miqdor jihatdangina emas, sifat qonuniyatları jihatidan ham etarli darajada atroflicha va to'la axborot berishi kerak.

Bu talablar bajarilmaganda ishlab chiqilgan modeldan texnologik tizimning keng qatlamdagi ish sharoitlari o`zgarishida foydalanish qiyin bo`ladi.

Qaysi omillar eng muhim, qaysilarini esa hisobga olmaslik mumkinligini tizimni batafsil o`rganmasdan turib aytib bo`lmaydi. Modelni soddalashtirishda o`rganilayotgan hodisaning muhim elementlarini hisobga olinmasligi mumkin va bu bilan model aniq jihoz hisoblari uchun yaroqsiz bo`lib qoladi, shu bilan bir vaqtida yaroqli model matematik jihatdan murakkab bo`lsa ham uning asosida etarli darajada aniq hisoblar olib borish mumkin bo`lmay qoladi. Texnologik tizimning matematik modelini ishlab chiqish yuqorida keltirilgan talablarni o`zaro muvofiqlashtirish bilan bog`liq bo`ladi.

Bu murakkab masalani hal qilishda ayrim umumiy tamoyillar xususan, jihoz va jarayonlarga tizimli yondoshish yordam beradi. Qurilmalarda yuz beradigan jarayonlar murakkab tizim tarzida ko`rib chiqiladi, ya`ni bir-biri bilan ma`lum munosabatda bo`lgan va yaxlitlik va birlikdagi bir qancha elementlar deb qaraladi. Tizimli yondoshishda pog`onali usulni qo`llash qulay. Uning mohiyati shundaki, murakkab tizim kichik tizimlar yig`indisi deb qaralib, yuqori pog`onadagi tizimlar quyi tizimlarning barcha funksiyalarini bajaradi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki texnologik tizim va tizim tanlash murakkab, yaxshi qurilma va jixozlar yig`inidan texnologik tizim bo`lavermaydi. Ko`rilayotgan texnologik tizimda sifatli mahsulot olish uchun asosiy jarayonlar va qurilmalar mavjud ulardan biri ikkilamchi xom ashyoni quritish qurilmasi bo`lsa ikkinchisi qurigan mahsulotni maydalash qurilmalaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI.

1. Bo`riev X.Ch. Rizaev R Meva uzum mahsulotlari biokimyosi va texnologiyasi. Toshkent, “Mehnat”, 2006.
2. Bo`riev, X. Ch. Jo`raev, R.J Alimov. O.A.Meva sabzavotlarni saqlash va ularga dastlabki ishlov berish, Toshkent 2002.

3. Djeneev S.Yu. Texnologiya xraneniya vinograda. - Moskva. 2003.
4. Djeneev S.EU. Sovershenstvovanie texnologii xranenie vinograda. Xranenie i pererabotka kartofelya, ovoçey plodov i vinograda. Moskva. Kolos, 2010.
5. Oripov R, Sulaymonov I, Umurzoqov E. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi. Toshkent "Mehnat" 2001 y.
6. Temurov Sh. Uzumchilik (Ma'ruza matnlari) Toshkent, 2000.

Internet saytlari:

<http://www.prosushka.ru/1844-sushilka-dlya-fruktov-recepty.html>

http://retseptysukhofrukt.blogspot.com/p/blog-page_29.html

http://www.sma4no.net/e107_plugins/content/content.php?content.40

<http://www.prosushka.ru/281-sposoby-sushki-vinograda.html>